https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Dilshodova Munisa Dilshod qizi
O'zbekiston Milliy Universiteti magistranti
Email: dilshodovamunisa1@gmail.com

Kushakov Abdulla Romanovich
Ilmiy rahbar: : g,-m.f.f.d, professor

LANGAR MINTAQASI IKKI TABAQALI MOLYUSKALARI (HISOR JANUBI-G'ARBIY QISMLARI BO'YICHA)

Annotatsiya

Hisor tizmasining janubi-g'arbiy qismida joylashgan Langar maydonining quyi bo'r davri yotqiziqlarida uchraydigan ikki tabaqali mollyuskalar faunasi stratigrafik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Maqolamizda hududning geologik o'rganilish tarixi tahlil qilinib, oldingi izlanishlarda paleontologik ma'lumotlarning yoritilish darajasi va e'tiborga olinish kerak bo'lgan jihatlari ko'rsatib o'tiladi. Ayrim asosiy ikki tabaqali mollyuskalar taksonlarining stratigrafik ahamiyati ko'rsatilib, ularning quyi bo'r davri biostratigrafiyasini tiklashdagi roli asoslab beriladi. Olib borilgan tadqiqotimiz natijalari Langar maydoni uchun mahalliy stratigrafik sxemani aniqlashtirish hamda qo'shni hududlar bilan taqqoslashda muhim, bo'r davri gorizontini aniqlashda ilmiy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar

Quyi bo'r davri, Biostratigrafiya, Mahalliy stratigrafik sxema, Sherobod svitasi, Hisor tizmasi, Paleontologik asoslash, Stratigrafik korrelyatsiya

Аннотация

Фауна двустворчатых моллюсков, встречающихся в отложениях нижнего мела Лангарского поля, расположенного в юго-западной части Гиссарского хребта, имеет важное стратиграфическое значение. В нашей статье анализируется история геологического изучения региона, указывается

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

степень освещенности палеонтологических данных в предыдущих исследованиях и аспекты, которые необходимо учитывать. Показано стратиграфическое значение некоторых основных таксонов двустворчатых моллюсков и обоснована их роль в реконструкции биостратиграфии нижнемелового периода. Результаты проведенных исследований имеют важное научное значение при уточнении местной стратиграфической схемы для Лангарского поля и сравнении с соседними территориями, а также при определении мелового горизонта.

Ключевые слова

Нижний меловой период, Биостратиграфия, Местная стратиграфическая схема, Шерабадская свита, Гиссарский хребет, Палеонтологическое обоснование, Стратиграфическая корреляция

Annotation

The fauna of bivalve mollusks, found in the Lower Cretaceous deposits of the Langar field, located in the southwestern part of the Gissar Range, has important stratigraphic significance. In our article, the history of geological study of the territory is analyzed, and the degree of illumination of paleontological data in previous research and aspects that need to be taken into account are indicated. The stratigraphic significance of some main taxa of bivalve mollusks is shown, and their role in reconstructing the biostratigraphy of the Lower Cretaceous period is substantiated. The results of our research are important for clarifying the local stratigraphic scheme of the Langar area and comparing it with neighboring territories, as well as for determining the Cretaceous horizon.

Keywords

Lower Cretaceous, Biostratigraphy, Local stratigraphic scheme, Sherabad Suite, Hissar Range, Paleontological justification, Stratigraphic correlation

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Kirish (Introduction)

Evolutsion nazariyaga muvofiq har qanday tur ma'lum geologik davr mobaynida yashab, gulkirab rivojlanadi, keng maydonlarga tarqaladi va qirilib ketadi. Bu esa bizga stratigrafik qatlamlar yosh chegaralarini o'rnatishda muhim ahamiyatga ega. Ikki tabaqali molyuskalar bizga Erta Kembriydan ma'lum. Ularning ayrim turlari Bo'r davriga xos va yetakchi fauna hisoblanadi.

Langar maydoni Hisor tog'larining janubi-g'arbiy chegarasida, ma'muriy jihatidan qashqadaryo viloyatining bir qismidir. Maydon geologik-stratigrafik jihatdan 1970- yillarda neft-gaz uchun istiqbolli hududlarni izlash maqsadi o'tkazilgan xaritalash ishlari davrida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Hudud KGGQE partiya a'zolari tomonidan o'rganilib, dala –qidiruv ishlari olib borilgan. Asosiy javobgar shaxs esa partiya boshlig'i Rasulov.D hisoblanib asosiy maqsad neft – gaz konlari istiqbolli hududlarini aniqlashda yuzaga kelayotgan yirik masshtabli xaritalarning yo'qligi muammosini bartaraf etish bo'lgan. Bundan kelib chiqib shuni ta'kidlashimiz mumkinki mavjud ma'lumotlar umumiy bo'lib, asosiy e'tibor ikki tabaqali molyuskalarga qaratilmagan. Tadqiqotning asosiy maqsadi esa Quyi Bo'r davri biostratigrafiyasining asosiy faunasini Langar hududi misolida yoritib berish va uning ahamiyatliligini ko'rsatishdir.

Metodlar (Methods)

1968- yil Langar maydoni Hisor tog'larining janubi-sharqiy qismini Geologik tadqiqot olib borish ishlari boshlangan "1:50,000 va 1:25,000 masshtablarda geologik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha asosiy ko'rsatmalar" ga muvofiq, Aerofotosuratlardan foydalangan holda 1:25,000 topografik bazasida o'tkazilgan. Topografik materiallar va aerofotosuratlarning sifatili darajada olingan. Aerofotosuratlarning yorug'ligi past va aniqligi past bo'lgan hududlarda marshrut kesishish usuliga ustunlik bergan holatda syomkalash ishlari davom ettirilgan. Asosiy xaritalash usuli geologik chegaralarni kuzatish va

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

qiyalik bo'ylab tayanch gorizontlarni aniqlash edi. Bu ish "stratigrafik kesmalar" qalinligini aniqlash uchun "tog‘ jinslari yo‘nalishiga ko‘ndalang" normal kesmalar namunalari bilan birga olib borilgan. Qalinliklarni "tayanch gorizont"ga o‘tkazish (yuqori senoman Tagarin gorizonti qumtoshlarini yopish va qatlamlarning yotish burchaklari katta bo‘lgan hollarda ishchi profillarni qurish belgilangan.

Syomka marshrutlarini o‘tkazishda geologik kuzatuvlar bilan bir vaqtda daladan tashqari davrda dastlabki geologik xarita tuzishda asos qilib olingan deshifrovka belgilarining to‘g‘riligi tekshirilib, uzatishlar natijasida aniqlangan va tekshirilgan deshifrovka belgilari - litologik, tektonik, geomorfologik va boshqalar dala oldi geologik xaritasini tuzatish va to‘ldirishga, marshrutlar orasida joylashgan uchastkalarning geologik tuzilishini tushunishga yordam bergan.

Qo’llanmalarga muvofiq yirik masshtabli neft-gaz hududlardagi geologik xaritalash ishlarida tayanch gorizont chegaralarini instrumental bog’lash amalga oshiriladi, Bu esa tayanch gorizonti bo‘yicha struktura xaritasini zarur aniqlikda tuzish imkonini beradi. Shuning uchun geologik kuzatish nuqtalarining bir qismi topograf tomonidan planli va balandlik bo‘yicha instrumental bog‘lanadi.

Qidiruv ishlari radiometrik kuzatuvlar, shlixli, metallometrik, gidrokimyoviy va barazdali namunalash yordamida amalga oshirildi. O‘rganilayotgan hududning yuzasida rivojlangan barcha yotqiziqlarning litologik-stratigrafik xususiyatlarini o‘rganish ularni qatlamma-qatlam tavsiflash yo‘li bilan amalga oshirildi, bu jarayonda bevosita dalada maydonning turli nuqtalarida saqlanib qolgan va o‘zaro bog‘langan o‘ziga xos belgilovchi gorizontlar va svitalar ajratib olindi, qazilma faunasini sinchkovlik bilan yig‘ish, laboratoriya tadqiqotlari uchun namunalar olish amalga oshirilgan.

Dala ishlari umumiy ikki bosqichda 1971-yil 7-sentyabrdan 15-dekabrgacha va 1972-yil 13-apreldan 15-dekabrgacha o‘tkazilgan. Dala ishlarida partiya boshlig‘i Rasulov D. katta geolog Kamalov.Y. (1972 yil mavsumi apreldan

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

avgustgacha m-s), qidiruv otryadi boshlig‘i Moris L.A., qidiruv otryadi boshlig‘i Polyakov.V.P., katta texnik geolog Yunusxodjiyev.R.T., katta texnik kartograf Litvenenko.L.V. (1972 yil mavsumi), texnik geolog Xudoyqulov. A (1972 yil mavsumi), geologik kuzatuv nuqtalarini instrumental bog’lash ishlari bilan Sodiqov.Sh (1971 yil mavsumi), Kosarev.F.I, geologik syomka bilan Rasulov D.R, Polyakov, Kamelov, kamroq Moris, Yunusxo‘jayev R. shug‘ullanishgan. Qidiruv ishlari bilan moris L.A., Yunusxodjayev R.T., Xudayqulov A., ToshDU talabalari Jumayev J., Baxriddinov B., Kozlovekova T., Dobrinina L. shug‘ullanib, ular kanavalarni gamma-profillash bilan shug‘ullanganlar.

Qazilma makrofuna qoldiqlari KGGQE stratigrafik partiyasi xodimlari - Renman V.A., Vinokurova V.G. va Abduazimova I.M. tomonidan aniqlangan, foraminifera kolleksiyalari Bogomolova A.M. tomonidan qayta ishlangan, neogen ostrakodalari Buxarina A.A. tomonidan aniqlangan.

Jinslarning spektral tahlili, gidrokimyoviy tadqiqotlari va kimyoviy tahlili O‘zSSR MG Markaziy laboratoriyasida amalga oshiriladi. Granulometrik tahlil, shlixlarning mineralogik tavsifi va shaffof shliflarning tavsifi KGGQE stratigrafik partiyasining litologik laboratoriyasi tomonidan amalga oshirilgan.

Dala materiallariga kameral ishlov berish va hisobot tuzishda ishtirok etganlar: partiya boshlig‘i Rasulov. D, qidiruv otryadi boshlig‘i Polyakov.V.P,, qidiruv otryadi boshlig‘i Moris L.A, texnik geolog Xudaykulov. Hisobotga texnik kartograf L.V.Litimnenko tomonidan grafik chizilgan. Kameral ishlar geologiya-geofizika bo‘limi boshlig‘i I.G.Tkachenko va region katta geologi A.P.Kochetkov nazorati ostida olib borilgan.

Avvalgi tadqiqotlarda Hisor tizmasining janubi-g‘arbiy qismidagi quyi bo‘r yotqiziqlari asosan litologik va strukturaviy belgilar asosida o‘rganilgan bo‘lib, paleontologik materiallar, xususan ikki tabaqali mollyuskalar yetarli darajada

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

stratigrafik asoslovchi omil sifatida qo‘llanilmaganligi bois izlanishimiz aynan Quyi Bo’r davri ikki tabaqalilariga qaratildi.

Natijalar (Results)

Tadqiqot hududi o’rganilish davrida olingan faunalarga boy namunalardan Langar maydoni Oqsu va Sherobod svitalarini ajratishda yordan beradigan asosiy ikki tabaqali molyuskalar topilgan. Bular Neithea quinquecostata Sowerby, Modiolus turkestanensis 1949, Modiolus bukharensis 1949 va boshqalardir. Keltirilgan turlar Quyi Bo’r davri yetakchi faunalari deb e’tirof etiladi.



1-*rasm. Neithea quinquecostata Sowerby*

ANISOMYARIA PECTINIDAE LAMARCK 1801 PECTININAE LAMARK 1801 Pecten aequicostatus Lamarck 1819 Neithea quinquecostata Sowerby

Namuna ta’rifi; chig’anoq tabaqalari teng bo’lmagan, uchburchaksimon shaklga ega va markazida toji joylashgan. Odatda balandligi uzunligidan kattaroq, O’ng tabaqasi yirikroq, kuchli bo’rtgan va 90 gradusda burilgan holatda. Kamdan-kam hollarda quloqchalari saqlanib qolgan, deyarli teng, uchburchak shaklga ega. Ba’zi namunalarda o’ng tomondagi quloqchasi biroz kichik bo’lgan holatlar

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

mavjud. Tabaqalarning chetlari dumaloq. Chig'anoqning toj qismi markazda va biroz o'tmas holatda uchraydi. Chig'anoqda radial qovurg'alar mavjud. Ulardan 6 tasi yirik qovurg'alar bo'lib har birining orasiga to'rttadan kichikroq qovurg'a joylashgan va ularning 2 tasi biroz yirikroq. Bu esa turning asosiy belgilaridan biri hisoblanadi. Yuqori tabaqasi kam bo'rtgan deyarli tekis holatda va radial qovurg'alar bilan qoblangan.

Bu tur Quyi bo'r davridan boshlab keng tarqalgan bo'lib, Senoman yotqiziqlarida ko'p uchraydi. Osiyo, Yevropa, Afrika va Hindiston hududida uchraydi. Tarqalish davri Bo'r ga oid bo'lganligi sababli asosiy Bo'r davri gorizontini ajratuvchi faunalardan hisoblanadi. Stratigrafik jihatdan Langar maydoni yotqiziqlari yoshini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.



2-rasm: a) Modiolus Turkestanensis 1949 , b) Modiolus bukharensis1949

ANISOMYARIA MYTILACEA MYTILIDAE FLEMING 1828

Modiolus Lamarck 1799

Namuna ta'rifi: Chig'anoqlar o'rta va yirik kattalikda, bo'yiga cho'zilgan shaklda. Kil bo'ylab egilgan shaklda. Kuchli bo'rtgan, bel qismi tekis va uzunchoq shaklda,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

orqa tomoni kuchli kengaygan holatda bo'ladi. Mayda o'sish chiziqlari ko'zga tashlanib turadi. Modiolus turkestanensisda qorin qismi keng, tabaqalari kuchli bo'rtgan, toji kichik va uchsiz, mayda konsentrik chiziqlar bilan qoplangan chig'anoq mavjud. Modiolus bukharensis kuchli shishgan shakldagi chig'anog'i uzunchoq, o'rta qismi qisqargan, orqa tomoni esa kengaygan, qorin qismi yetarlicha bo'rtgan va to'g'ri shaklda. Bel qismida mayda o'sish izlari kuzatiladi. O'tkir kil, tor toj va tabaqa qismi bilan ajralib turadi.Toj qismi bel tomoniga egilganroq.

Bu tur Turkiston hududi, Markaziy Osiyoda keng tarqalgan. Bo'r va Paleogen davri yotqiziqlarini aniqlashdagi yetakchi fauna hisoblanadi. Hamda paleogeografik sharoitni tiklashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhokama va xulosa (Discussion/Conclusion)

Ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, Langar maydoni quyi bo‘r yotqiziqlarida uchraydigan ikki tabaqali mollyuskalar ilk bor biostratigrafik asoslovchi omil sifatida kompleks tahlil qilindi.Ya'ni hududdagi qatlamlarning yoshi va paleogeografik sharoitini tiklashda Modiolus kabi aniq turlar keltirib o'tildi. Oldingi tadqiqotlarda hudud asosan litologik va strukturaviy yondashuvlar asosida o‘rganilgan bo‘lib, paleontologik materiallar yetarli darajada stratigrafik asos sifatida qo‘llanilmagan. Mazkur ishda esa fauna asosida mahalliy stratigrafik birliklarni aniqlashtirishga urinish amalga oshirildi deya olamiz.

Yuqorida olingan faunalar bo'r davri yetakchi faunasi hisoblanganligi bois mahalliy stratigrafik kesmalar tuzish va ularning yoshini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa Langar maydonini Sherobod, Boysun kabi qo'shni hududlar bilan taqqoslashda yordam beradi. Hududning aniq yoshini aniqlab berish orqali kelgusida chuqurroq izlanishlar olib borish va istiqbolli konlar topishda muhim ahamiyatga ega.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Langar maydoni uchun Quyi Bo'r davri chegarasini aniqlashda ikki tabaqali molyuskalarning o'rni beqiyos. Ular yordamida mahalliy stratigrafik kesmalarni shakllantirish, aniq yosh chegarasini qo'yib bera olish va qidiruv ishlarida muhim ahamiyatga ega bo'lgan Paleogeografik sharoitni tiklash mumkin. Tadqiqotning keying bosqichlarida hudud uchun stratigrafik kesim shakllantirish va qo'shni hududlar bilan yaqqol taqqoslash ko'zda tutilmoqda. Bu neft-gaz, ko'mir konlariga istiqbolli bo'lgan maydonlarni aniqlashda yuqori ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. И.А.КОРОБКОВ « ПАЛЕОНТОЛОГИЧЕСКИЕ ОПИСАНИЯ » Издательство « НЕДРА» Ленинградское отделение Ленинград.1971

2. «СТРАТИГРАФИЧЕСКИЙ СЛОВАРЬ УЗБЕКИСТАНА»\\Тр.ИМР. – Ташкент: ГИДРОИНГЕО. 2001-580с

3. АКАДЕМИЯ НАУК СССР «ОСНОВЫ ПАЛЕОНТОЛОГИИ» http://jurassic.ru/

4. Расулов.Л.Р Мориц.Л.А Поляков.В.П при участии Худайкулова. А ООТЧЁТ Лянгарской ГСП по структурно – геологической съёмки масштаба 1:25000